

“O‘zbekistonda astronomiya: o‘tmishi, buguni, kelajagi” mavzusidagi xalqaro konferensiya haqida



Astronomiya instituti tashkil topganligining 150-yilligiga bag‘ishlangan “O‘zbekistonda astronomiya: o‘tmishi, buguni, kelajagi” mavzusidagi xalqaro konferensiya o‘z ishini boshladi.

Xalqaro konferensiyada xorijlik mehmonlar, jumladan Rossiya Fanlar akademiyasi va Xitoyning bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari-mutaxassislari qatorida respublikadagi ilmiy tashkilotlar olimlari ishtirok etishmoqda.

Xalqaro konferensiya yalpi majlisidan so‘ng “Fundamental astrofizik vazifalar” mazusidagi 1-seksiya o‘z ishini davom ettirdi. Unda Rossiyaning Amaliy fizika instituti, Kosmik tadqiqotlar instituti, Amaliy astronomiya instituti, Fizika instituti, Lazer va axborot texnologiyalari muammolari instituti, Quyosh-Yer fizikasi instituti olimlari, mahalliy olimlardan Astronomiya instituti, Ion-plazma va lazer instituti olimlari-mutaxassislari o‘z ma‘ruzalari bilan ishtirok etdilar.

Astronomiya instituti tashkil topganligining 150-yilligiga bag‘ishlangan film yaratildi va konferensiya ishtirokchilariga namoyish etildi.

Joriy yil 19-dekabrda konferensiya ishtirokchilari “Suffa” xalqaro radioastronomik observatoriyasi tashrif buyurishdi.

20-dekabr kuni konferensiyaning “Ilmiy tadqiqotlar uchun Katta Quyosh sandonidan foydalanish” mavzuidagi 2-seksiyasi o‘z ishini FA Materialshunoslik institutida davom ettirdi. Unda ishtirokchilarga Katta Quyosh sandoni obyekt bo‘yicha ekskursiya uyushtirildi.

Konferensiya uchinchi kuni - 2023-yil 21-dekabrda 3-seksiyasi “Suffa loyihasining texnik, konstruktorlik va

tashkiliy masalalari” o‘z ishini davom ettiradi. Unda Pekinning “Ekzosayyoralar ni qidirish muammolari” universiteti (Xitoy), Moskva Milliy universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti, Ion-plazma va lazer instituti, RT-70 radioobservatoriya, Milliy universitet olimlari-mutaxassisleri o‘z ma‘ruzalari bilan chiqishlari ko‘zda tutilgan.